

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**"RO'YXATGA OLINDI"**

**№ VM-343-53409-3.14**

**"1" iyul 2003 y.**

**"TASDIQLANDI"**

**O'zbekiston Respublikasi**

**Oliy va o'rta maxsus**

**ta'lim vazirligi**

---

**"8" iyul 2003 y.**

**BUXGALTERIYA HISOBI  
NAZARIYASI  
fanidan  
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 - "Biznes va boshqaruv"  
ta'lim sohasidagi 5340900 - "Buxgalteriya  
hisobi va audit" bakalavriat yo'nalishi uchun**

**Toshkent - 2003**

**Tuzuvchilar:** prof. Xasanov B. A.,  
k.o'q. Maxmudov A. N.,  
k.o'q. Rizaev N. Q.

**Taqrizchilar:** prof. Voxidov S. V.,  
dots. Mamatov Z. T.

"Buxgalteriya hisobi nazariyasi" fani bo'yicha tuzilgan ushbu namunaviy dastur qo'yilgan talablarga to'liq javob beradi. Bu o'quv fani dasturida jami 6 bo'lim mavjud bo'lib, fanining maqsadi, vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi, DTSga muvofiq bilim va ko'nikmalar, amaliyot va seminar darslari bo'yicha ishlarning minimal miqdori, kompyuter va informatsion texnologiyalarni qo'llash, fan dasturi, amaliy va seminar mashg'ulotlari, kurs ishi mavzularining ro'yxatlari, tavsiya etilayotgan mavzular bo'yicha ko'rgazma-namoyish materiallari, o'quv filmlari va boshqa didaktik materiallarning ro'yxati, talabalarni reyting asosida baholash bo'yicha o'zlashtirish nazorati hamda adabiyotlar ro'yxati o'z ifodasini topgan.

Данная программа по предмету "Теория бухгалтерского учета" отвечает на все поставленные требования. Программа состоит из 6 частей. В них содержится следующие сведения:

Цель и задача предмета, связь с остальными предметами, знания и навыки соответствующие СГО, минимальное количество семинаров и практических занятий, применение компьютеров и информационной техники, программа предмета, семинарские занятия, темы курсовых работ, наглядно-показательные материалы по рекомендуемым темам, список учебных фильмов и других дидактических материалов, контроль успеваемости студентов по рейтинг системе и список используемой литературы.

The necessity of training of the students to the "Theory of Financial Accounting" consists of the organization of financial accounting in our republic according to the international standards that requires conducting this subject.

The created program of the "Theory of Financial Accounting" subject - completely answers all put requirements. The program consists of 6 parts. They contain the following items:

The purpose and task of a subject, communication with other subjects, knowledge and skills appropriate to the SSE (Standards of State Education), minimum quantity of seminars and practical employment, application of computers and technological information, program of the subject, seminar lessons, the list of themes of "course

works", evident - indicative materials on recommended themes, the list of educational films and other materials, control of progress of the students on a rating system and list of the literature for usage.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

## **1. SO'Z BOSHI**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga etkazish to'g'risidagi" Farmonida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dasturni hayotga tadbiq etish ishlari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb belgilangan. Shunga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlari tasdiqlandi. (2001 yil 16 avgust 343-son). Mazkur standartlar bo'yicha har bir o'qitiladigan fanlardan namunaviy dasturlar tayyorlash zaruriyati tug'ildi.

"Buxgalteriya hisobi nazariyasi" fani bo'yicha tuzilgan ushbu namunaviy dastur Davlat ta'lim standartlari tomonidan qo'yilgan talablar asosida tuzilgan bo'lib, iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalari uchun mo'ljallangan. Mazkur fan hisob haqida tushuncha, hisobdagi asosiy tamoyillar, hisobning usullari, moliyaviy hisobotning tarkibi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda buxgalteriya hisobini tashkil qilish va hisob siyosati haqida nazariy bilimlar beradi.

### **O'quv faniing maqsadi, vazifalari va boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi**

Respublikamizda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda bozor munosabatlarining rivojlanishi malakali buxgalterlar, auditorlar, soliqchi va moliyachi mutaxassislariga ehtiyoj tug'diradi.

O'quv rejasiga muvofiq bo'lg'usi buxgalter va auditor mutaxassisliklari talabalari "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" fanini o'rganadi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlardagi mablag'lar va mablag'larning tashkil topishi manbalari harakatini, xo'jalik muomalalarini hisobga olish, ularni hujjatlashtirish, umumlashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mulkiy, moliyaviy faoliyati to'g'risidagi to'liq va ishonarli ma'lumotlarni shakllantirish hamda moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibini respublikamizdagi qonunlar, hukumat qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida o'rganadi.

"Buxgalteriya hisobi nazariyasi" fani xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mulkiy va moliyaviy faoliyatini hisobga olishda o'zining usul, uslubiyatiga ega bo'lish bilan birgalikda o'z faoliyatini yuritishda boshqa fanlar bilan bevosita bog'liqligi bois quyidagi, bu fanlar ham chuqur o'rgatiladi: "Iqtisodiyot nazariyasi", "Makroiqtisodiyot", "Mikroiqtisodiyot", "Statistika", "Audit", "Moliyaviy hisob", "Boshqaruv hisobi", "Iqtisodiy tahlil", "Moliya", "Soliqlar va soliqqa tortish", "Pul, kredit va banklar", "Menejment", "Marketing", "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar", "Sug'urta ishi", "Kichik biznes va tadbirkorlik". Ta'lim zamonaviy usullarda va kompyuterlardan foydalangan holda amalga oshiriladi.

#### **Fan bo'yicha talabalarning bilimi, uquvi va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar**

Mazkur mutaxassislik bo'yicha o'qiydigan talabalar "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" fanini chuqur o'rganishi hamda etuk mutaxassis bo'lishi uchun quyidagi talablar quyiladi:

- huquqiy davlat, demokratik fuqarolik jamiyati yoshlari, ayniqsa, buxgalter, auditor mutaxassisligini egallovchi talabalar huquqshunoslik, davlat va jamiyat qurilishi fanlarini chuqur egallagan bo'lishi;
- bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillarini hamda qonunlarini mukammal o'rganishi;
- milliy g'ururga, yuqori madaniyatga ega bo'lishi, o'zbek xalqining tarixini bilishi;
- mutaxassislik fani bilan bog'liq fanlarni mukammal o'rganishi;
- fan va texnika yutuqlariga qiziquvchan, o'ziga nisbatan talabchan, o'rganayotgan faniga, o'z vataniga fidoyi bo'lishi kerak.

Fanni o'rgatishda mutaxassislik kafedralar o'qituvchilari talabalarda fanga nisbatan qiziqish uyg'otishi har bir talabaning bilim saviyasi, shaxsiy fazilat va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda vazifa berishi hamda talab qilish san'atiga ega bo'lishi lozim.

O'qitish jarayonida nazariy bilim bilan amaliyot uzviyligiga erishmoq, o'quv jarayonini talabaning mustaqilligini ta'minlaydigan darajada tashkil qilmoq kerak.

#### **Fanni o'qitishda kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy texnologiyalarni qo'llash**

Talabalarga fanni zamonaviy usulda o'rgatish, ularning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratish hamda olgan bilimini mustaqil ravishda baholash uchun quyidagilardan foydalaniladi:

- talabalarni oldindan tarqatma materiallar bilan ta'minlashga erishish;
- talaba o'z bilimini o'zi baholashi uchun sharoit yaratib berish;
- talabalarning bilimini tayanch iboralar asosida baholashni joriy qilish;

- talabalarni kichik guruhlarga bo'lib o'qituvchilar rahbarligida mustaqil bilim olishga o'rgatish;
- iqtidorli talabalar bilan ularni qiziqtiruvchi mavzular bo'yicha qo'shimcha darslarni tashkil qilish va h.k.

### **Fanni o'qitish semestrlari va uslubiy ko'rsatmalar**

"Buxgalteriya hisobi nazariyasi" fani talabalarga o'quv rejasida bo'yicha III semestrda o'qitiladi.

"Buxgalteriya hisobi nazariyasi" fani ma'ruza va amaliy mashg'ulot shaklida auditoriyada o'rgatiladi.

Egallangan nazariy bilimlarini mustahkamlash uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda amaliyot o'taydilar. O'quv jarayonida o'zlashtirish darajasi o'qituvchilar hamda belgilangan hay'at a'zolari tomonidan reyting usulida baholanadi, shuningdek nazoratning og'zaki va yozma usullari ham qo'llaniladi.

### **Umumiy va o'quv ishlari turlari bo'yicha hajmi**

"Buxgalteriya hisobi nazariyasi" fanini o'rganish bo'yicha o'quv rejasida jami 54 soat belgilangan. Shundan: ma'ruza 18 soat, amaliy mashg'ulot 18 soat, mustaqil ta'lim 18 soat.

## **2. FAN DASTURI**

### **Ma'ruza mashg'ulotlarining namunaviy mavzulari**

#### **"Buxgalteriya hisobi nazariyasi" fanining predmeti va metodi xamda tadqiqot usullari**

*Xo'jalik hisobi to'g'risida umumiy tushuncha va unga qo'yiladigan talablar. Xo'jalik hisobining turlari, hisobda qo'llaniladigan o'lchov birliklari. Xo'jalik hisobi tizimining yaxlitligi. Hisobotning nazorat qilish funktsiyalari va iqtisodiy baholashda o'zaro bog'liqligi. Buxgalteriya hisobi sub'ektlari va ob'ektlari. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobidagi islohotlar.*

Buxgalteriya hisobining predmeti va uning muhim ob'ektlari, xo'jalik mablag'larining tashkil topish manbalarini turkumlash, xo'jalik jarayonlari va xo'jalik muomalalari to'g'risida tushuncha, buxgalteriya hisobi ob'ektlarining tarmoqlar xususiyati va mulkchilikning shakllariga bog'liqligi, buxgalteriya hisobining usullari va uning elementlari.

### **Buxgalteriya balansi, uning tuzilishi va mazmuni**

*Buxgalteriya balansining tuzilishi, uning mazmuni va ahamiyati. Balansni o'qish tartibi. Xo'jalik muomalalari ta'sirida balansda sodir bo'ladigan o'zgarishlar.*

Respublikamiz korxonalarida tuzilayotgan balanslar bilan xorijiy davlatlarda tuzilayotgan balanslar o'rtasidagi umumiy bog'liqlik. *Hisob siyosatida balansni yoritib berish tartibi.* Balansga tegishli bo'lgan moliyaviy hisobot elementlari.

### **Hisoblar tizimi va ikkiyoqlama yozuv**

*Buxgalteriya hisobi hisoblari, ularning tuzilishi, ikkiyoqlama yozuv va uning asoslanishi.* Schyotlarni iqtisodiy mazmuni, tarkibi va tayinlanishi bo'yicha turkumlanishi. Buxgalteriya hisobining schyotlar tizimi va uning ahamiyati. *Doimiy va vaqtinchalik schyotlar.* Tartibga soluvchi, balansdan tashqari, joriy, kontrar-aktiv va kontrar-passiv hisoblar, Ketma-ket (xronologik) va tizimli (sistemali) yozuvlar. Balans va schyotlarning o'zaro bog'liqligi. Buxgalteriya hisobining schyotlari rejasi.

### **Baholash va kalkulyatsiya**

*Qiymat ko'rsatkichining mohiyati.* Baholash – bu pulda o'lchash uslubi ekanligi. Baholashning asosiy tamoyillari. Boshlang'ich qiymat, qoldiq qiymat, joriy qiymat, sotish qiymati, diskontlangan qiymat, balans qiymat. Kalkulyatsiya maqsadi va vazifalari. Kalkulyatsiya turlari: smeta, rejali, normativ, hisobot.

### **Asosiy xo'jalik jarayonlari hisobining tamoyillari**

Xo'jalik jarayonlarining asosiy ko'rsatkichlari. *Ta'minot jarayonining hisobi. Ishlab chiqarish jarayonining hisobi. Sotish jarayonining hisobi. Ist'emol jarayonining hisobi.*

### **Hujjatlashtirish va inventarizatsiya**

*Hujjatlashtirish haqida tushuncha.* Buxgalteriya hisobida hujjatlarining roli va ahamiyati. Hujjatlarga yozuvlar qilish va ularni rasmiylashtirishda qo'yiladigan talablar. Hujjatlarning aylanishini tashkil etish. Inventarizatsiya to'g'risida tushuncha, uning ahamiyati va turlari. *"Inventarizatsiyani tashkil etish va uni o'tkazish" nomli buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS 19-son)ga muvofiq xo'jalik sub'ektlarida inventarizatsiya o'tkazishni tashkil qilish tartibi.* Inventarizatsiya natijalarini buxgalteriya hisoblarida aks ettirilishi.

### **Buxgalteriya hisobining shakllari**

Hisob registrlari, ularni buxgalteriya hisobidagi roli va ahamiyati. Buxgalteriya hisobining shakllari, ularning mohiyati va tarixiy rivojlanishi. Buxgalterning avtomatlashtirilgan ish joyi haqida tushuncha. *Buxgalteriya hisobining jurnal-order*

*shakli. Buxgalteriya hisobining memorial-order shakli. Buxgalteriya hisobining avtomatlashtirilgan shakli (1:S buxgalteriya).*

### **Hisobot**

Buxgalteriya (moliyaviy) hisoboti haqida tushuncha, uning ahamiyati va mohiyati. *Buxgalteriya (moliyaviy) hisobotining tarkibi va turlari.* Hisobot shakllarining tuzilish tamoyillari: hisoblash, ikkiyoqlama yozuv, mazmunning shakldan ustunligi, offsetting, ishonchlilik, ko'rsatkichlarning taqqoslanuvchanligi, moliyaviy hisobotlarning betarafligi, aktiv va majburiyatlarning sof bahosi, o'z vaqtidalik. Buxgalteriya balansi (1-shakl), moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi hisobot (2-shakl), asosiy vositalar harakati tug'risidagi hisobot (3-shakl), pul mablag'lari to'g'risidagi hisobot (4-shakl), xususiy kapital to'g'risidagi hisobot (5-shakl), hisobotga ilovalar, tushuntirishlar va ma'lumotlar. Yillik (chorak, yarim yillik) hisobotlarni tuzish, ularni to'ldirish va taqdim etish tartibi. Yig'ma buxgalteriya hisoboti. Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etishning kontseptual asoslari (BHMS asosida).

### **Buxgalteriya hisobini tashkil etish**

*O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni va uning ahamiyati.* Xo'jalik sub'ektlarida buxgalteriya hisobining vazifalari va funktsiyalari. Buxgalteriya hisobini tashkil etish asoslari. Bosh buxgalterning burchi, huquqi va javobgarligi. Buxgalteriya apparati, uning tuzilishi va vazifalari. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Korxonalarda hisob siyosati. Markazlashgan va markazlashmagan hisob haqida tushuncha. Kichik va o'rta biznes korxonalarida buxgalteriya hisobini xalqaro va milliy standartlar asosida tashkil etish. Buxgalteriya hisobini tashkil etishni takomillashtirish yo'llari.

## **3. AMALIY VA SEMINAR MASHG'ULOTLAR RO'YXATI**

### **"Buxgalteriya hisobi nazariyasi" fanining predmeti va metodi hamda tadqiqot usullari**

Xo'jalik hisobining turlari, hisobda qo'llaniladigan o'lchov birliklari. Buxgalteriya hisobining maqsadi va vazifalari. Hisobotning nazorat qilish funktsiyalari va iqtisodiy baholashda o'zaro bog'liqligi. Buxgalteriya hisobining asosiy qoidalari.\*

Buxgalteriya hisobining predmeti va uning muhim ob'ektlari. Xo'jalik jarayonlari va xo'jalik muomalalari to'g'risida tushuncha. Buxgalteri hisobi ob'ektlarining tarmoqlar xususiyati va mulkchilikning shakllariga bog'liqligi.

### **Buxgalteriya balansi, uning tuzilishi va mazmuni**

Balans moddalari. Xo'jalik muomalalari ta'sirida balansda sodir bo'ladigan o'zgarishlar. Hisob siyosatida balansni yoritib berish tartibi. Balansga tegishli bo'lgan moliyaviy hisobot elementlari bo'yicha ishlab chiqarish.

### **Schyotlar tizimi va ikkiyoqlama yozuv**

Buxgalteriya hisobining schyotlari va uning tuzilishi, ikkiyoqlama yozuv va uning asoslanishi. Buxgalteriya hisobining schyotlar tizimi va uning ahamiyati, ularning o'zaro bog'liqligi. Joriy buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish. Asosiy schyotlar va tartibga soluvchi schyotlar, taqsimlovchi schyotlar, taqqoslovchi schyotlar, balansdan tashqari schyotlar. Balans va schyotlarning o'zaro bog'liqligi.\*

### **Baholash va kalkulyatsiya**

Baholash – bu pulda o'lchash uslubi ekanligi. Boshlang'ich qiymat, qoldiq qiymat, joriy qiymat, sotish qiymati, diskontlangan qiymat, balans qiymati. Kalkulyatsiyaning maqsadi va vazifalari.\* Kalkulyatsiyani turlari: smeta, rejali, normativ, hisobot kalkulyatsiyasi.

### **Asosiy xo'jalik jarayonlari hisobi tamoyillari**

Xo'jalik jarayonlarining asosiy ko'rsatkichlari. Ta'minot jarayonining hisobi.\* Ishlab chiqarish jarayonining hisobi.\* Sotish jarayonining hisobi.\* Iste'mol jarayonining hisobi.

### **Hujjatlashtirish va inventarizatsiya**

Hujjatlashtirish haqida tushuncha. Buxgalteriya hisobida hujjatlarning roli va ahamiyati. Buxgalteriya hujjatlarining turlari, ularni turkumlash, hujjatlarning rekvizitlari.\* Hujjatlarning aylanishini tashkil etish. Inventarizatsiya to'g'risida tushuncha, uning ahamiyati va turlari. Xo'jalik sub'ektlarida inventarizatsiya o'tkazishni tashkil qilish tartibi.\* Inventarizatsiya natijalarini buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirilishiga oid korxonalar ma'lumotlari.

### **Buxgalteriya hisobining shakllari**

Buxgalteriya hisobining shakllari ularning mohiyati va tarixiy rivojlanishi. Buxgalteriya hisobining jurnal-order shakli.\* Buxgalteriya hisobining memorial-order shakli. Buxgalteriya hisobining avtomatlashtirilgan shakli.

### **Hisobot**



Buxgalteriya (moliyaviy) hisobotining tarkibi va turlari.\* Hisobot shakllarining tuzilish tamoyillari. Buxgalteriya balansi (1-shakl), moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi hisobot (2-shakl), asosiy vositalar harakati tug'risidagi hisobot (3-shakl), pul mablag'lari to'g'risidagi hisobot (4-shakl), xususiy kapital to'g'risidagi hisobot (5-shakl), hisobotga ilovalar, tushuntirishlar va ma'lumotlar. Yig'ma buxgalteriya hisoboti.

### **Xo'jalik sub'ektlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish**

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni va uning ahamiyati.\* Xo'jalik sub'ektlarida buxgalteriya hisobining vazifalari va funksiyalari. Buxgalteriya hisobini tashkil etish asoslari. Buxgalteriya apparati, ularning tuzilishi va vazifalari. Kichik va o'rta biznes korxonalarida buxgalteriya hisobini milliy standartlar asosida tashkil etish.

## **4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA-NAMOYISH MATERIALLARI, O'QUV FILMLARI VA BOSHA DIDAKTIK MATERIALLAR RO'YXATI**

Talabalar amaliy yordam tariqasida "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" fani bo'yicha qo'llaniladigan turli xil shakl, chizmalar, slaydalar bilan ta'minlanadi. Unda: Balans va uning tuzilishi; Baholash tamoyillari; Kalkulyatsiya usullari; Schyotlar rejasi; Hisobotlarni tuzish tartibi; hujjatlarning turkumlanishi o'rganiladi.

Talabalar "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" fanini o'rganishda axborot vositalaridan ya'ni internet tizimidagi quyidagi sayt va elektron pochtalardan ham keng foydalanadi:

1. <http://www.apb.org.uk> (Auditing Practices Board);
2. <http://www.nao.gov.uk> (UK National Audit Office);
3. <http://www.iaa.org.uk> (The Institute of Internal Auditors-United Kingdom);
4. <http://www.iasc.org.uk> (International Accounting Standards Committee);
5. <http://www.aicpa.org/index.htm> (American Institute of Certified Public Accountants);
6. <http://www.uza.uz> (O'zbekiston Milliy Axborot Agentligining turli sohalarga doir kundalik yangiliklari);
7. <http://www.uzreport.com> (Kundalik biznes yangiliklari);
8. <http://www.referat.ru> (Referatlar to'plami).

Talabalarga O'zbekiston Respublikasi Auditorlar palatasi, Buxgalterlar va Auditorlar Milliy Assosiatseyasi, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti va Toshkent Moliya institutida tayyorlangan o'quv filmlar, didaktik materiallar va multimedik ilovalardan foydalanish tavsi etiladi.

## **5. O'ZLASH TIRISH NAZORATI**

Talabalarni fan bo'yicha o'zlashtirishlarini baholash semestr davomida muntazam ravishda olib boriladi va joriy baholash, oraliq baholash va yakuniy baholash orqali amalga oshiriladi. Joriy va oraliq baholash turiga ajratilgan ballar miqdori o'quv rejasida fanga ajratilgan soatning 70%, yakuniy baholashga esa 30% miqdorda belgilanadi. Joriy va oraliq baholash turlariga belgilangan ballar quyidagi holatlarda qo'yiladi:

- talabani o'quv jarayonidagi davomati va faolligi;
- amaliy (seminar) mashg'ulotlarga tayyorgarlik darajasi;
- fan bo'yicha asosiy manbalarni konspektlashtirishi;
- dolzarb mavzular bo'yicha referatlar yozishi;
- ilmiy tezislarni tayyorlashi;
- mustaqil ta'lim uchun berilgan nazorat ishlarini bajarishi;
- fan bo'yicha ko'rgazmali qurollarni tayyorlash.

Tayanch iboralarga asoslangan yozma ishni o'tkazish tartibi "Reyting tizimini yakuniy baholash bosqichida "Yozma ish" usulini tatbiq etish bo'yicha namunaviy Nizom" bilan belgilanadi. Semestr davomida fanlar bo'yicha to'plangan ballar quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi:

- 86 - 100 foiz "a'lo";
- 71 - 85 foiz "yaxshi";
- 55 - 70 foiz "qoniqarli";
- 55 foizdan kam "qoniqarsiz".

## **6. ADABIYOTLAR**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: Adolat, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"ni Qonuni. 1996 yil 12 sentyabr // "Xalq so'zi" gazetasi.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarning tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom. 1999 yil 5 fevral, 54-sonli qarori.
4. Moliyaviy hisob, - T.: KARANA va PRAGMA korporatsiyalari, 2000-2001.
5. Ostonoqulov M. Buxgalteriya hisobi nazariyasi, - T.: O'qituvchi, 1993.
6. Xasanov B., Bobobekov B. Buxgalteriya hisobi nazariyasi., metodik qo'llanma. T.M.I. - 2000.
7. Qodirxonov S.B va boshqalar. Buxgalteriya nazariyasi bo'yicha masalalar to'plami. T.D.I.U - 1996.
8. Yangi schyotlar rejasi. Buxgalterlar va auditorlar assotsiatsiyasi - 2002.
9. Yuldashev S., Xoshimov B., Muxammad Salim. Osnovi buxgalterskogo ucheta. T.D.I.U -1997.

## Qo'shimcha adabiyotlar

1. Nidlz B., Anderson X., Kolduell D, Printsipi buxgalterskogo ucheta, (pod. Red. V. Sokolova), - M.: FiS, 1994.
2. Buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS). O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining oylik nashrlar to'plami. 2000-2002.
3. Vud F. Buxgalterskiy uchets dlya predprinimateley. - M.: FiS, 1993.
4. Ibragimov A., Karimov A. Xorij sarmoyalari buxgalteriya hisobi, - T.: O'zbekiston, 1999.
5. Pankov D. Buxgalterskiy uchets i analiz v zarubejnih stranax. - Mn: Ekoperspektiva, 1998.
6. Nikolaeva O. Mejdunarodnie standarti finansovoy otchetnosti, - M.: URSS, 2001.
7. Sotivoldiev A., Itkin Yu, Zamonaviy buxgalteriya hisobi, T.: Bva AA-2002 , 1 va 2-tomlar.
8. Xasanov B., Xoshimov B. Buxgalteriya hisobi nazariyasi fanidan ma'ruza matnlari, TMI - 2001.
9. G'ulomova F. Samouchitel po buxgalterskomu uchetu. - T.: Mir ekonomiki i prava, 2000.
10. Fremgen F.M. Accounting for managerial Analysis: Third Edition. Richard D. Irwing Inc., Homewood, Illions, 1996.
11. Kenneth M. Morris & Allan M. Siegel. Guide to understanding money & investing. 2000 by lightbulb, press, Inc.
12. Securities Regulation in THE Unite States. NASD. Washington-2000.
13. The Istanbul Stock Exchange In a Historical Perspective. Written by Pfor. Haydar Kazgan/ published by ISE.- Istanbul-1999.
14. The Work Of SEC. U.S. Securities and Exange Comisssion.-1999.
15. Sost accounting (a managerial emphasis) / USA. Mexico. Or Canada. 2001.
16. Financial accounting / USA. Mexico. Or Canada. 2001.